



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No8**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 36 sahifa.*

*2025-yil noyabr*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Candidate of Economic Sciences (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI



#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 28-fevraldagi  
333/5-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                     |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA<br>XOS XUSUSIYATLARI.....               | 10 |
| Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna                                                        |    |
| FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS .....                                                  | 15 |
| Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal                                                                        |    |
| BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY<br>SAMARADORLIGI.....                        | 22 |
| Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev                                                                     |    |
| BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN<br>FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI..... | 27 |
| Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                      |    |
| YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....                                                                | 32 |
| Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li                                                   |    |



# YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR

**Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li**

University of Business and Science  
"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:

**Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li**

University of Business and Science  
"Moliya" kafedrasi dotsent v.b. (PhD)  
OCID: 0009-0008-7679-1976

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "yashil" iqtisodiyot yo'nalishlaridan biri — "yashil" logistika haqida so'z yuritiladi. Unda yashil logistikaning iqtisodiyotdagi o'rni, uning an'anaviy logistikadan farqlari, afzalliklari va kamchiliklari yoritiladi. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalar mohiyati, qaysi kompaniyalar ushbu toifaga kirishi, ularning logistikaga qo'shgan hisssasi hamda yashil iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirgan amaliy ishlari bayon etiladi. Maqola orqali yashil logistik korporatsiyalar haqida ma'lumotlar beriladi va ushbu yo'nalishda mavjud kamchilik hamda to'siqlar bo'yicha yechimlar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil logistika, transmilliy korporatsiya, texnika-texnologiyalar, yashil biznes, bulutli hisoblash, infratuzilma, investitsiya, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** This article explores one of the main directions of the Green Economy — Green Logistics. It explains the role of green logistics in the economy, its differences from conventional logistics, and its advantages and disadvantages. The article also examines the concept of transnational corporations, which companies fall into this category, their contribution to logistics, and their practical activities aimed at supporting the green economy. The article provides information on green logistics corporations and proposes solutions to existing challenges and barriers in this field.

**Key words:** green economy, green logistics, transnational corporation, technology, green business, cloud computing, infrastructure, investment, sustainable development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается одно из направлений «зелёной» экономики — «зелёная» логистика. Раскрываются роль зелёной логистики в экономике, её отличия от традиционной логистики, а также преимущества и недостатки. Анализируется сущность транснациональных корпораций, какие компании относятся к этой категории, их вклад в развитие логистики и практическая деятельность в сфере «зелёной» экономики. В статье приведены сведения о зелёных логистических корпорациях, а также предложены решения существующих проблем и препятствий в данной области.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, зелёная логистика, транснациональная корпорация, техника и технологии, зелёный бизнес, облачные вычисления, инфраструктура, инвестиции, устойчивое развитие.

## KIRISH

So'nggi yillarga kelib global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolarning keskinlashuvi natijasida "yashil" logistika konsepsiyasi transmilliy korporatsiyalar faoliyatida muhim omilga aylanmoqda. Hozirgi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida, umuman olganda, global iqtisodiyotda logistikaning roli katta. Keling, dastlab logistika tushunchasi haqida so'z yuritamiz. "Logistika" — tovar va ma'lumotlar oqimini ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Logistikaning maqsadi xarajatlarni kamaytirish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirishdan iborat. Iqtisodiyotda logistikadan foydalanish ushbu atama paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan. Qadim zamonlarda logistika



qo'shinlar uchun yuklarni tashish va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan. Rim imperiyasida harbiy yurishlarni ta'minlash va moddiy-texnik ta'minot bilan shug'ullanish uchun maxsus logistika bo'linmalari yaratilgan.

Zamonaviy ko'rinishdagi logistika esa 20-asrda tovarlarni ishlab chiqarish va taqsimlash ko'lamini oshirish tufayli shakllana boshladi. 20-asrning 50–60-yillarida AQSHda logistika alohida fan sifatida qarala boshlandi va ilk o'quv dasturlari yaratildi. 70-yillardan boshlab logistika global biznesga kirib bordi va ta'minot zanjirlarining ajralmas qismiga aylandi. 90-yillarda logistika va ta'minot zanjirini boshqarish sohasida yangi texnologiyalar ishlab chiqildi, bu esa butun dunyo bo'ylab biznesning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, logistika atama paydo bo'lishidan ancha avval mavjud bo'lgan bo'lsa-da, uning biznes uchun ahamiyati hozirgi kunda ham ortib bormoqda. Qisqacha qilib aytganda, logistika dunyo iqtisodiyotida ta'minot zanjirini boshqaradi, ya'ni axborot va ma'lumotlarni yetkazish, tovarlarni yetkazib berish va shu kabi jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirda "yashil" iqtisodiyotning rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bu "yashil" logistikadir. Yashil logistika — logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali iste'molchilarga mahsulotlarni minimal xarajatlar evaziga, kelishilgan muddatda va atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda yetkazib berishga qaratilgan yondashuvdir. Bu chiqindilarni boshqarish, utilitatsiya qilish, qadoqlash, qayta ishlash, energiya iste'molini kamaytirish va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga logistika xizmatlarini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish orqali erishish mumkin. Oddiy logistikadan farqli ravishda yashil logistika tovarlarni siljitishda ekologik transportlardan foydalanish, raqamlashtirilgan texnologiyalar asosida faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Ya'ni mahsulotlarni ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan yetkazib berish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan tamoyillar majmuasidir. Boshqacha aytganda, yashil logistika — bu transport, saqlash, qadoqlash va taqsimlash bosqichlarida energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish hamda uglerod izini qisqartirishga yo'naltirilgan boshqaruv tizimidir. Albatta, global iqtisodiyotning rivojlanishida transmilliy korporatsiyalarning o'rni katta.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) — bir nechta mamlakatlarda faoliyat yurituvchi, o'z brendi va mahsulotlarini global miqyosda taqdim etadigan korporatsiyalardir. Ular o'z faoliyatini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va marketing sohalarida olib boradi. Bu korporatsiyalar bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritish orqali nafaqat o'z brendini kengaytiradi, balki joylashgan davlatlar iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kompaniyalar qachon TMKga aylanadi? Qachonki ular o'z faoliyatini kamida ikki yoki undan ortiq mamlakatda yuritisa, ishlab chiqarishning kamida 10 foizi xorijda amalga oshirilsa hamda daromadining 25 foizi va undan yuqori ulushi faoliyat yuritayotgan davlatlardan shakllansa, korxona TMK maqomini oladi. Ularga misol sifatida dunyoning yirik ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korporatsiyalari — Coca-Cola, PepsiCo, Apple, Samsung, Microsoft, KFC, Amazon, Toyota Motor, DHL, FedEx Corp, CEVA Logistics, Honda Motor, John Deere, General Motors, Nestlé va boshqa ko'plab kompaniyalarni keltirish mumkin. Bu yirik transmilliy korporatsiyalar ichida logistika sohasida "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga amal qiluvchi kompaniyalar ham mavjud. Yashil iqtisodiyot — atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan barqaror model bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Masalan, Amazon kompaniyasini olaylik. Amazon — global savdo aylanmasida mustahkam o'ringa ega korporatsiya bo'lib, 1994-yilda Jeff Bezos tomonidan asos solingan. Dastlab onlayn kitob do'koni sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, bugungi kunda elektron savdo, bulutli hisoblash va raqamli translyatsiya sohalarida yetakchi kompaniyalardan biridir. Kompaniya 200 dan ortiq davlatda faoliyat yuritadi, 2025-yil holatiga ko'ra, unda 2 milliondan ortiq xodim ishlaydi. Bu esa Amazonni dunyodagi eng yirik va eng qimmat kompaniyalardan biriga aylantiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Amazon yashil iqtisodiyot yo'nalishida keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda, xususan, kompaniya so'nggi yillarda ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dunyodagi eng faol transmilliy korporatsiyalardan biriga aylandi. Kompaniya 2019-yilda "The Climate Pledge" tashabbusini boshlab, 2040-yilgacha butun operatsiyalarida uglerod chiqindilarini nol darajaga yetkazish ("net-zero carbon") maqsadini qo'ydi. Bu tashabbus orqali Amazon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Parij kelishuvini 10 yil avvalroq bajarishni o'z zimmasiga oldi. Yashil iqtisodiyot sohasida kompaniyaning eng katta yutug'i — qayta tiklanadigan energiya loyihalarining keng miqyosda amalga oshirilishi bo'ldi. 2025-yilgacha Amazon o'zining barcha global infratuzilmasini 100 % qayta tiklanadigan elektr energiyasi bilan ta'minlashni maqsad qilgan. 2024-yil holatiga ko'ra, Amazon dunyo bo'yicha 500 dan ortiq quyosh va shamol elektr stansiyasi loyihalarini ishga tushirgan, bu esa uni qayta tiklanadigan energiyaga eng katta korporativ investorlar qatoriga kiritadi. Shuningdek, kompaniya transport va logistika sohasida ham sezilarli natijalarga erishdi.



Amazon 100 ming dona elektr yuk avtomobillarini xarid qilish bo'yicha Rivian kompaniyasi bilan shartnoma tuzdi. Bu tashabbus natijasida AQSh va Yevropa bozorlarida emissiyasiz yetkazib berish tarmog'i kengaymoqda. "Shipment Zero" dasturi doirasida esa Amazon o'z yetkazib berish operatsiyalarining 50 %ini 2030-yilgacha "nol chiqindili" tizimga o'tkazishni rejalashtirgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida kompaniya o'rmonlarni himoya qilish, landshaftlarni tiklash hamda uglerod yutuvchi ekotizimlarni saqlash loyihalarini amalga oshirmoqda. Amazon bu yo'nalishda LEAF Coalition tashabbusiga qo'shilib, tropik o'rmonlarni himoya qilish uchun moliyaviy ko'mak bermoqda. Mahsulotlarni qadoqlash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha ham kompaniya bir qator texnologiyalardan foydalanib, plastiklardan bosqichma-bosqich voz kechib, qayta ishlanadigan va atrof-muhitga ta'siri past bo'lgan qadoqlash materiallariga katta e'tibor qaratmoqda. Amazon kompaniyasining bunday yashil iqtisodiyotdagi faoliyati nafaqat atrof-muhitda CO2 izlarini kamaytirishga, balki global iqtisodiyotda yashil texnologiyalarni joriy etishga ham katta turtki bermoqda. Shuningdek, u boshqa transmilliy korporatsiyalar uchun barqaror rivojlanish bo'yicha namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Yana bir logistik transmilliy korporatsiya sifatida DHL misolini ko'rib chiqish mumkin. DHL kompaniyasi 1969-yilda Adrian Dalsey, Larry Hillblom va Robert Lynn tomonidan AQShning San-Fransisko shahrida tashkil etilgan.

Kompaniya nomi ham ularning familiyalari bosh harflaridan olingan: D (Dalsey) + H (Hillblom) + L (Lynn) = DHL. Dastlab DHL xalqaro hujjat va pochta tashish xizmati sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, hozirda u dunyoning eng yirik logistika tarmog'idan biri — Deutsche Post DHL Group tarkibida ishlaydi. DHL 220 dan ortiq davlat va hududlarda faoliyat yuritadigan dunyoning yetakchi logistika kompaniyalaridan biridir. DHL ham so'nggi yillarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga qo'llashga alohida e'tibor qaratmoqda. Kompaniya 2050-yilgacha barcha operatsiyalarida "net-zero" emissiya, ya'ni uglerod chiqindilarini butunlay yo'q qilish maqsadini belgilagan. Bu maqsad sari yetib borish uchun DHL 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini 2020-yil darajasiga nisbatan 50 %ga kamaytirishni rejalashtirgan. Kompaniya yashil logistika konsepsiyasining yetakchilaridan biri bo'lib, o'zining "GoGreen" dasturi orqali mijozlarga ekologik toza transport yechimlarini taklif etmoqda. Ushbu dastur yordamida kompaniya yetkazib berish yo'nalishlarini optimallashtirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza qadoqlash materiallaridan foydalanishni yo'lga qo'ygan. Ayniqsa, elektr va nol emissiyali transport vositalarining joriy etilishi DHLning eng muhim yutug'laridan biri bo'ldi. Hozirda kompaniya dunyo bo'ylab 30 000 dan ortiq elektr transport vositalari bilan faoliyat yuritmoqda, bu esa logistika sohasida ekologik ifloslanishni sezilarli darajada kamaytirmoqda.

Germaniyada pochta va paket xizmatlarining 50 %dan ortig'i past emissiyali yoki elektr transport vositalari orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, DHL aviatsiya sohasida ham ekologik innovatsiyalarni joriy etmoqda. Kompaniya 2022-yilda 830 million litr barqaror aviatsion yoqilg'i (SAF) zahiralab, havo yuk tashish jarayonlarida an'anaviy yoqilg'ilar o'rniga ekologik toza alternativlardan foydalanishni boshladi. Shu bilan birga, DHLning ko'plab omborlari va logistika markazlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tkazilgan hamda karbon-neytal binolar sifatida faoliyat yuritmoqda. DHL o'zining yashil iqtisodiyotdagi faoliyati bilan atrof-muhitga befarq emasligini ko'rsatib, yer yuzida sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlariga nisbatan ijobiy hissa qo'shib kelmoqda va shu orqali boshqa TMKlar uchun ham barqaror rivojlanish tamoyillarida o'rnak bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan Amazon va DHL transmilliy korporatsiyalari logistika sohasining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shib, zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan "yashil" iqtisodiyotni qabul qildi va uning vositasida atrof-muhit bilan bog'liq keng ko'lami tashabbuslarni amalga oshirdi. Natijada, logistikada yangi tushuncha va yo'nalish — "yashil logistika"ning shakllanishi va rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yashil logistikadagi ular olib borayotgan faoliyat nafaqat o'zlari joylashgan hududda, balki global miqyosda tovarlar almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuklarni yetkazib berish xizmatida elektromobillar va yuk mashinalaridan, Amazon misolida esa kichik yetkazib berish xizmatlarida uchuvchisiz uchish apparatlari — dronlardan foydalanilishi atrof-muhitga chiqadigan CO2 gazlari emissiyasini kamaytiradi. Shuningdek, qadoqlash jarayonida plastik paketlardan voz kechib, qayta ishlash mumkin bo'lgan materiallardan foydalanish, yetkazib berish zanjirida chiqindilarni nol darajaga tushirishga intilish atrof-muhitga zarar yetkazmasdan faoliyat yuritish imkonini beradi va ularning yashil iqtisodiyotdagi rolini kuchaytiradi. Eng dolzarb yo'nalishlardan bo'lgan yashil energiya, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalariga hamda yashil biznes loyihalariga homiylik qilish va ularga investitsiya kiritish orqali ular boshqa sohalarning rivojlanishiga ham o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Biroq "yashil" logistika sohasini rivojlantirish jarayonida bir qator to'siq va cheklovlar ham mavjud: texnologik jarayonlarning murakkabligi va barcha logistika kompaniyalari hamda TMKlarning texnologiyalarini tezkor ravishda yashil texnologiyalarga o'tkazish imkoniyatlarining cheklanganligi, texnik vositalar yetishmasligi, moliyaviy tomondan turli yetishmovchiliklar, infratuzilmaviy cheklovlar, hukumat olib borayotgan siyosatning ayrim hollarda kompaniyalar manfaatlariga mos kelmasligi, xalqaro hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi shular jumlasidandir. Aynan mana shu omillar tufayli yashil iqtisodiyot va yashil logistika sohasini jadal rivojlantirish ma'lum darajada sekinlashmoqda.





## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada yashil logistika kompaniyalari va ularning transmilliy korporatsiyalar faoliyatidagi roli yoritildi. Yashil logistika tamoyillari hozirgi davrda transmilliy korporatsiyalar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, global iqtisodiy tizimda ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya resurslarini tejash va transport jarayonlarining salbiy ekologik ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan bevosita bog'langan ushbu tizim korxonalar uchun nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki iqtisodiy samaradorlik manbai ham hisoblanadi. TMK lar, xususan Amazon va DHL, yashil logistika siyosatini muvaffaqiyatli joriy etish orqali bu yo'nalishda o'zlarining yetakchi tajribalarini namoyon etmoqda. Ularning barqaror rivojlanish strategiyalari transport jarayonlarida chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu kompaniyalar misolida ko'rish mumkinki, yashil logistika tamoyillarini qo'llash nafaqat ekologik xavfsizlikni oshiradi, balki uzoq muddatda xarajatlarni kamaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq bu sohada hali-hanuz bir qator muammolar mavjud.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil texnologiyalarni joriy etishda mablag' va investitsiyalarning yetishmasligi, infratuzilmalarning zamonaviy standartlarga mos emasligi (masalan, elektr avtomobillar uchun quvvatlash stansiyalarining yetishmasligi) sababli yashil transport vositalaridan keng foydalanish imkoni cheklangan. Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan yashil iqtisodiyotga oid huquqiy me'yorlarning korporativ siyosatlariga to'liq mos kelmasligi bu yo'nalishning rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun hukumat darajasida yashil iqtisodiyot va yashil logistika siyosatini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlarini kengaytirish, yashil grantlar va investitsiyalarni ko'paytirish zarur. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yashil startaplar uchun keng imkoniyatlar yaratish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektr transport va qayta ishlash sohalariga sarmoyalar jalb etish muhimdir. Eng asosiysi, ushbu yo'nalishlarda yetuk malakali kadrlarni tayyorlash, aholida ekologik madaniyat va bilimni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, TMK lar yashil logistika tamoyillarini joriy etishda global yetakchi rolni bajarib, o'z tajribasi bilan boshqa mamlakatlar uchun samarali namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning tajribasini o'rganish va milliy miqyosda tatbiq etish O'zbekiston uchun ekologik barqaror iqtisodiy o'sish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro ekologik standartlarga mos rivojlanish sari muhim qadam bo'ladi. Yashil logistika — nafaqat ekologik zarurat, balki kelajak iqtisodiyotining strategik yo'nalishidir. Ushbu maqolada yoritilgan ma'lumotlar umumiy tasavvur beradi, ammo yashil logistika va transmilliy korporatsiyalar faoliyatini chuqurroq o'rganish uchun boshqa manbaalarga murojaat qilish tavsiya etiladi. Umid qilamizki, ushbu maqola orqali "yashil logistika" bo'yicha bilim va tushunchalaringiz yanada boyidi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. What is logistics? – Elektron manba: <https://allcargo.market/uz/blog/post/what-is-logistics>
2. Yashil logistika nima uchun zaruratga aylanmoqda? – Elektron manba: <https://yuz.uz/uz/news/yashil-logistika-nima-uchun-zaruratga-aylanmoqda>
3. Amazon Sustainability Report 2024. – Elektron manba: <https://sustainability.aboutamazon.com/2024-amazon-sustainability-report.pdf>
4. Amazon Climate Solutions. – Elektron manba: <https://sustainability.aboutamazon.com/climate-solutions>
5. The Climate Pledge – Amazon. – Elektron manba: <https://www.aboutamazon.com/planet/climate-pledge>
6. DHL Sustainability Milestones at Global Summit (Press Release, 2023). – Elektron manba: <https://group.dhl.com/en/media-relations/press-releases/2023/dhl-unveils-sustainability-milestones-at-industry-first-global-summit>
7. Isayev Q.A. Xalqaro iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2021. – 456 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>